

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 193 (1254), 2024-yil 21-sentabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news




yuz



## YANGI TAYINLANGAN ELCHILARGA DO‘STLIK VA HAMKORLIK MUNOSABATLARINI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN SHARAFLI FAOLIYATIDA ISHONCH BILDIRILDI

20-sentabr kuni mamlakatimizga yangi tayinlangan xorijiy elchilar tomonidan ishonch yorliqlarini topshirish tantanali marosimi bo‘ldi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Hindiston Respublikasi Favqulodda va muxtor elchisi Smita Pant, Koreya Respublikasi Favqulodda va muxtor elchisi Von Do Yon, Mo‘g‘uliston Favqulodda va muxtor elchisi Daadaxuu Batbaatar, Germaniya Federativ Respublikasi Favqulodda va muxtor elchisi Manfred Xuterer, Isroil Davlati Favqulodda va muxtor elchisi Gideon Lustig va Yevropa Ittifoqi Favqulodda va muxtor elchisi Toyvo Klaardan ishonch yorliqlarini qabul qildi.

Davlatimiz rahbari xorijiy diplomatik vakolatxonalar rahbarlarini O‘zbekistondagi sharaflari va mas‘uliyatli faoliyati rasman boshlangani bilan samimiy tabrikladi. Bugungi kunda jahondagi beqaror va tez o‘zgarayotgan davrda elchilarning nafaqat o‘z mamlakatlarining manfaatlarini ilgari surish, balki xalqlarimiz o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini har tomonlama mustahkamlashga qaratilgan sharaflari faoliyatining ahamiyati keskin ortib borayotgani ta‘kidlandi.

Prezidentimiz ochiq, konstruktiv va pragmatik tashqi siyosat natijasida Yangi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi o‘mi va mavqei tobora mustahkamlanayotganini ta‘kidladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan mamlakatimiz tashabbusi bilan 10 dan ortiq, jumladan, joriy yilning o‘zida katta ahamiyatga ega 4 ta maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. Murakkab global vaziyatda ham O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘smoqda,

Jahon banki bu yil o‘z sish 5,3 foizni tashkil etishini prognoz qilmoqda. Xalqaro valyuta jamg‘armasi e‘tirof etganidek, o‘tgan yil yakuni bo‘yicha mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti ilk bor 100 milliard dollardan oshdi. Parijdagi yozgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari mamlakatimizning yangi sport tarixini yaratgan yosh sportchilarimizning rekordlari va misli ko‘rilmagan yutuqlari maydoniga aylandi. — Bularning barchasi ortga qaytmastus olgan keng ko‘lamli islohotlarimizning samarasidir, — dedi davlat rahbari.

O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi asosida demokratik jamiyat qurish, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, sanoat va ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, tadbirkor va investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratish siyosatini davom ettirishi ta‘kidlandi. Shu munosabat bilan kelgusi oyda Oliy Majlis va mahalliy vakillik organlariga o‘tkaziladigan saylovlar yangilangan Konstitutsiyaga muvofiq ilk bor aralash saylov tizimi asosida o‘tkazilishi alohida qayd etildi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishini qo‘llab-quvvatlab kelayotgani uchun diplomatik vakolatxonalar rahbarlari vakillik qilayotgan mamlakatlar hukumatlariga minnatdorlik bildirildi. O‘zbekiston Prezidenti Hindiston Respublikasi elchisi Smita Pantga murojaat qilar ekan, ikki mamlakat yetakchilarining qat‘iy siyosiy irodasi tufayli mamlakatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarilganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

## MAMLAKATIMIZ SPORTI TARIXIDA ENG YUQORI NATIJALAR

ushbu sohaga davlat darajasidagi e‘tiborning samarasidir

Prezident Shavkat Mirziyoyevga sport sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va istiqbolli rejalar to‘g‘risida axborot berildi.

Avvalo, ommaviy sportni va olimpiya harakatini yanada kengaytirish masalalariga e‘tibor qaratildi. Yaqinda Parijda bo‘lib o‘tgan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sportchilari jami 39 ta medalni qo‘lga kiritib, yuzlab davlatlar orasida 13-o‘rinlarni egallagan edi. Bu mamlakatimiz sporti tarixida eng yuqori natijalar bo‘ldi. Mazkur nufuzli musobaqalar g‘olibi va sovrindorlari bilan uchrashuvda davlatimiz rahbari 2028-yilda Los-Anjelesda bo‘ladigan o‘yinlarga hozirdan tayyorgarlik ko‘rish, yo‘llanmalar soni va turini ko‘paytirish zarurligini ta‘kidlagan edi. Shundan kelib chiqib, Sport vazirligi, Milliy Olimpiya va Paralimpiya qo‘mitalari tomonidan sport turlari bo‘yicha foydalanilmagan imkoniyatlar yana bir bor tanqidiy tahlil qilindi. Misol uchun, Olimpiya o‘yinlarida yengil atletika bo‘yicha 48 ta, suv sporti turlarida 49 ta dastur mavjud. Lekin vakillarimiz ularda 5 va 4 ta yo‘llanma bilan qatnashdi, xolos.

Tennis, o‘q otish, gimnastika, velosport bo‘yicha federatsiyalar ham, sharoit ham bor. Yunon-rum kurashi, ot sporti, qilichbozlik, eshak eshish bo‘yicha hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko‘p. Chim ustida xokkey, basketbol, gandbol, regbi, suv polosi kabi jamoaviy sport turlarini ham rivojlantirish zarur. Mazkur sport federatsiyalari ishini jonlantirish, o‘quv-mashg‘ulotlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha vazifalar belgilandi. Olimpiya va paralimpiya harakati ommaviy sportdan kuch olishi ta‘kidlanib, mahallalarda seleksiya ishlarini kengaytirish, iqtidorli yoshlarni professional etib tarbiyalash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Ma‘lumki, kelgusi yil yurtimizda yoshlar o‘rtasida Osiyo va Paraosiy o‘yinlari o‘tkazilishi

rejalashtirilgan. Buning uchun Toshkentda Olimpiya shaharchasi barpo etilmoqda. Shaharchaga tashrif chog‘ida Prezidentimiz bu majmua mamlakatimiz sportining ilmiy, amaliy, o‘quv-mashg‘ulot markazi bo‘lishi zarurligini aytgan edi. Shunga muvofiq, Osiyo o‘yinlaridan so‘ng Olimpiya shaharchasi infratuzilmasidan samarali foydalanish ko‘zda tutilmoqda. Buning uchun “Aqli shahar” konsepsiyasiga asoslangan ma‘muriy boshqaruv tashkil etiladi. U sport majmualarini saqlash, jihozlar va texnik tizimlar holatini kuzatib borish, zarur hollarda ta‘mirlash bilan shug‘ullanadi. Ustuvor sport turlari bo‘yicha yillik reja tasdiqlanib, hududlardagi sportchilarning Olimpiya shaharchasida o‘quv-mashg‘ulot o‘tkazishi yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, bu tuzilmaga ommaviy tadbirlarni tashkil etish, ijara va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish huquqi beriladi.

Olimpiya harakati haqida gap ketganda, qishki o‘yinlarni ham nazardan qochimaslik zarur. Shunday sport turlaridan biri xokkeydir. Bugungi kunda xokkey bo‘yicha 4 ta sport klubi va 3 ta sport inshooti mavjud. U-16 terma jamoamiz 2023-yilda Osiyo va Okeaniya kubogida 1-o‘rin sohibi bo‘lgan edi. Bu yil mazkur musobaqa ilk bor O‘zbekistonda o‘tkazilib, U-18 terma jamoamiz g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Shularga asoslanib, bu sport turini rivojlantirish, keyinchalik Olimpiya shaharchasi hududida xokkey majmuasini qurish bo‘yicha takliflar bildirildi. Davlatimiz rahbari aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga keng jalb etish, xalqaro musobaqalarga tizimli tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

O‘za

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

## UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISH

avvalo, ta‘lim sifatini oshirishdan boshlanadi

Bugun islohotlar negizini tashkil etuvchi Uchinchi Renessans poydevori, eng avvalo, ta‘lim sifatini oshirish orqali yoshlarimizni bilimli, ertangi kunga mas‘ul va daxldor insonlar qilib kamolga yetkazishdan boshlanadi.

Shu ma‘noda, sohaga doir qonunchilik hujjatlarida belgilangan muhim vazifalarni bajarishda barcha bo‘g‘indagi rahbarlardan katta mas‘uliyat va javobgarlik talab etiladi. Davlatimiz rahbarining “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan g‘oya va tash-

abbusi davlat idoralari va tashkilotlarining ijro tizimi ma‘muriyatiga katta mas‘uliyat yukladi. Natijada xalq bilan ochiq muloqot yo‘lga qo‘yilib, fuqarolarning murojaati bilan ishlashning yangi instituti shakllandi.

Davomi 2-beta

## Munosabat

VATANNI YOVDAN HIMOYA QILGANDEK o‘zbek tilini ham himoya qilishimiz, asrashimiz kerak

Jahon taraqqiyoti kuchaygani sari turli millatlar tilining inqirozga uchrash xavfi ham tobora ortyapti. Nafaqat ozchilik mulqot qiladigan, balki juda ko‘p odam gaplashsa-da, zamon shiddatiga mos ravishda rivojlanmay qolayotgan tillar ham bora-bora tarix qatlariga singib ketishi hech gap emas.

Davomi 5-beta

## CHINAKAM TARAQQIYOT YO‘LI —

KAMBAG‘ALLIKKA QARSHI KOMPLEKS KURASHISHDA

Inson qadri uchun

O‘zbekiston — buyuk tarixni o‘zida jamlagan o‘xshashi yo‘q davlat, ilm-fan va ma‘rifatning oltin beshigi. Tariximiz shon-sharaf, qahramonlik, mardlik namunalari boy, biroq sobiq ittifoq boshqaruvdagi noto‘g‘ri ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi asosiga qurilgan siyosat mamlakatda kambag‘allik muammasini keltirib chiqardi.

Bir necha o‘n yillar davomida mamlakatimizning iqtisodiy tang ahvolini o‘tish davri qiyinchiliklariga bog‘ladi. Baxt-saodatga moddiy farovonlik bilan emas, birinchi navbatda, ma‘naviy yetuklik orqali erishiladi, degan aqidaga mahkam yopishib oldik. Oxir-oqibat davlat ham, jamiyat ham muammolar girdobiga botib ketdi. Nihoyat vaqt o‘tib, anglab yetganimiz shu haqiqat bo‘ldi: inson oddiy minimal yashash sharoitidagi baxt tugul, xotirjamlik ham erisha olmas ekan.

Davomi 3-beta



## YANGI TAYINLANGAN ELCHILARGA

### DO'STLIK VA HAMKORLIK

### MUNOSABATLARINI MUSTAHKAMLASHGA

### QARATILGAN SHARAFLI FAOLIYATIDA

### ISHONCH BILDIRILDI

#### Boshlanishi 1-betda

Joriy yil boshidan buyon ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi 30 foizga oshdi, qo'shma korxonalar, aviaqatnovlar soni ko'paymoqda, sayyohlik almashinuvi kengaymoqda, hududlararo aloqalar izchil rivojlanmoqda. O'zbekistonda Hindiston universitetlarining to'rtta filiali muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Davlatimiz rahbari yaqin kelajakda o'zaro savdo hajmini 1 milliard dollarga yetkazish zarurligini ta'kidladi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot, innovatsiyalar, axborot texnologiyalari, sog'liqni saqlash, farmatsevtika, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, transport, turizm va boshqa ustuvor yo'nalishlarda amaliy hamkorlik loyihalarini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish va "Hindiston — Markaziy Osiyo" formatidagi muloqotni davom ettirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi.

O'zbekiston yetakchisi Koreya Respublikasi biz uchun Osiyo qit'asidagi vaqt sinovlaridan o'tgan yaqin do'st va alohida strategik sherik ekanini ta'kidladi.

Prezident Yun Sok Yoning O'zbekistonga davlat tashrifi chog'ida ko'p qirrali O'zbekiston — Koreya hamkorligining yangi bosqichini boshlashga kelishib olindi. Mamlakatimizda zamonaviy sanoat va infratuzilmani barpo etish maqsadida yuqori texnologik va innovatsion sheriklik modeli joriy etilmoqda.

O'zaro savdo hajmi 2,5 milliard dollarni tashkil etmoqda. 700 dan ziyod qo'shma korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda, yangi investitsiya loyihalari portfelini 10 milliard dollarga yetdi.

O'zbekistonda Koreyaning qator yetakchi universitetlari filiallari, kasb-hunar ta'limi, innovatsiyalar va axborot texnologiyalari markazlari ochildi, maktabgacha ta'lim tizimini yaratishning ilg'or tajribasi muvaffaqiyatli joriy etilmoqda, sog'liqni saqlash sohasida birgalikda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

— Toshkentda barpo etilgan Bolalar klinikasi, Koreya madaniyati va san'ati uyi, Seul bog'i va ko'chasi mustahkam do'stlikimizning yorqin ramzlariga aylandi, ko'p millatli xalqimizning ajralmas qismi bo'lgan salkam 200 ming nafar fuqarolarimizdan iborat koreys diasporasi esa taraqqiyotimizga munosib hissa qo'shmoqda, — dedi O'zbekiston Prezidenti.

Koreya Respublikasining yetakchi kompaniyalari bilan o'ta muhim mineralar, yarimo'tkazgichlar, kimyo sanoati, "yashil" energetika, mashinasozlik, "aqlli" qishloq xo'jaligi va transport sohalarida hamkorlik bo'yicha strategik rejalarni to'liq amalga oshirish zarurligi, shuningdek, parlamentlararo va hududlararo aloqalarni yanada faollashtirish, gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Mo'g'uliston elchisiga murojaat qilar ekan, Prezident Uxnaasiz Xurelsuxning yaqinda O'zbekistonga qilgan davlat tashrifi o'zaro manfaatli munosabatlarimizda yangi sahifa ochganini ta'kidladi.

Toshkentda Mo'g'uliston elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. Joriy yil boshidan buyon o'zaro savdo hajmi ikki barobar oshdi. Turli vazirlik va idoralar o'rtasidagi aloqalar faollashdi.

Erishilgan kelishuvlarni so'zsiz bajarish, xususan, Imtiyozli savdo to'g'risidagi bitimni qabul qilish, foydali qazilmalarni o'zlashtirish va qayta ishlashda ishtirok etish, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, charm, to'qimachilik, farmatsevtika sanoati va tibbiyot sohalarida loyihalarni amalga oshirish, to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish, ta'lim va madaniy dasturlarni kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

BMT, SHHT va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiqligi qayd etildi.

O'zbekiston rahbari dunyoning yetakchi davlatlaridan biri, ulkan intellektual va iqtisodiy salohiyatga ega Germaniya O'zbekistonning Yevropadagi muhim va uzoq muddatli hamkori ekanini qayd etdi.

O'tgan yili Germaniyaga amalga oshirilgan ikkita oliy darajadagi tashrif, shuningdek, Federal Kansler Olaf Sholsning yaqinda O'zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi ko'p qirrali O'zbekiston — Germaniya munosabatlari tarixida yangi davri boshlab bergan muhim voqealar bo'lgani ta'kidlandi.



## Markaziy saylov komissiyasining joriy yil 20-sentabr kuni bo'lib o'tgan majlisida Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlarni ro'yxatga olish hamda saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning saylovoldi tashviqotiga oid masalalar ko'rib chiqildi.

qolgan yetmish besh nafari esa yagona saylov okrugi bo'yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlariga munosib ravishda siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxati (ya'ni partiya ro'yxati) asosida saylandi.

Majlisda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, O'zbekiston Ekologik partiyasi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi tomonidan bir mandati saylov okrugi bo'yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga ko'rsatilgan nomzodlarni ro'yxatga olishga oid qaror qabul qilindi. Unga ko'ra, besh ta siyosiy

partiya tomonidan bir mandati saylov okrugi bo'yicha Qonunchilik palatasi deputatligiga ko'rsatilgan jami 375 nafar nomzod ro'yxatga olindi. Yagona saylov okrugi bo'yicha esa mazkur siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan, partiya ro'yxatidagi jami 500 nomzodni ro'yxatga olish bo'yicha Markaziy saylov komissiyasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

Yig'ilishda qayd etilganidek, milliy saylov tajribamizda ilk marotaba besh ta siyosiy partiya tomonidan barcha darajadagi deputatlik o'rinlariga 100 foiz nomzodlar ko'rsatildi. Xususan, siyosiy partiyalar Qonunchilik palatasiga jami 875 nafar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahri kengashlariga 3625 nafar, xalq deputatlari tuman va shahar kengashlariga jami 24 ming 850 nafar nomzod, ya'ni barcha saylov okrugarida nomzodlar to'liq ko'rsatish imkoniga ega bo'ldi. Bunda "E-saylov" interaktiv portali ishga tushgani ham muhim ahamiyatga ega. Bu tizim orqali siyosiy partiyalar nomzodlarning qonunchilik talablariga mosligi holati bo'yicha saylov komissiyalari bilan tezkor ishlash imkoniyati yaratildi.

Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan nomzodlar orasida ayollarni soni 391 nafarni yoki 44,7 foizni tashkil etdi.

Bu saylov tariximizdagi eng yuqori ko'rsatkichdir. Avvalgi saylovlarga qaraganda nomzodlar ancha yoshargan. Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning o'rtacha yoshi 47,2 yosh. Ularning 99,3 foizi oliy ma'lumotli. Nomzodlar orasida iqtisodchilar, pedagoglar, muhandislar, shifokorlar, huquqshunolar, tadbirkorlar, fermerlar va boshqa soha vakillari bor.

Hududiy, tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan mahalliy kengashlar deputatligiga nomzodlar ham ro'yxatdan o'tkazildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlari, Toshkent shahri hamda tumanlar (shaharlar) kengashlariga har bir partiyadan nomzodlar ro'yxatga olingan bo'lib, deputatlik mandati uchun 28 ming 475 nomzod kurashadi. Nomzodlarning 42,5 foizini xotin-qizlar tashkil etadi.

Mamlakatimizda yashayotgan aksariyat millat va etlat vakillari ham nomzodlar orasida bor. Xususan, Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlarga nomzodlarning 973 nafari tojik, 588 nafari qozoq, 146 nafari turkman, 141 nafari qirg'iz, 67 nafari rus va boshqa millat vakillaridir.

Nomzodlar ko'rsatishda siyosiy partiyalar inklyuzivlikka ham alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, Qonunchilik palatasiga saylov

bo'yicha deputatlikka nomzodlar orasida 11 nafar va mahalliy kengashlarga saylov bo'yicha deputatlikka nomzodlar orasida nogironligi bo'lgan 605 nafar shaxs mavjud. Bunday yuqori darajadagi inklyuzivlik birinchi marotaba kuzatilmog'uda.

"E-saylov" interaktiv portali orqali barcha darajadagi saylov bo'yicha ro'yxatga olingan 29 ming 350 nafar deputatlikka nomzodning mobil telefonlariga ulanilgan tegishli vakillik organi saylovi bo'yicha deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olingani, "E-saylov" tizimi yordamida ishonchli vakillarni ro'yxatdan o'tkazishi mumkinligi va saylovoldi tashviqoti boshlanishi va muddatlari to'g'risida bahonamalar yuboriladi.

Bundan tashqari, majlisda Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari saylovda ishtirok etuvchi siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning saylovoldi tashviqoti to'g'risidagi masala ham ko'rib chiqildi. Qaror bilan Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari saylov bo'yicha deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarining saylovoldi tashviqoti 2024-yil 22-sentabrdan boshlanishi belgilandi.

Shuningdek, saylovoldi tashviqoti davrida siyosiy partiyalarga saylovda ishtirok etishi uchun ijozat berilgan nadvati ketma-ketligida siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning ommaviy

axborot vositalarida chiqishlari belgilandi. Unga ko'ra:

- birinchi — Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi;
- ikkinchi — O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi;
- uchinchi — O'zbekiston Ekologik partiyasi;
- to'rtinchi — O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi;
- beshinchi — O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi.

Markaziy saylov komissiyasi qarori bilan davlat markaziy va hududiy teleradiokanalari hamda gazetalarda deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalar uchun saylovoldi tashviqoti davrida bepul e'fir vaqti hamda nashr maydoni hajmi ajratildi.

Shu kuni Markaziy saylov komissiyasi matbuot markazida saylovga tayyorgarlik jarayoni va saylovoldi tashviqotini yuritish masalalari yuzasidan matbuot anjumani o'tkazildi. Markaziy saylov komissiyasi a'zolari, siyosiy partiyalar vakillari ishtirok etgan tadbirida jurnalistlarni qiziqtirgan savollarga javob berildi.

**Bahor XIDIROVA,**  
**"Yangi O'zbekiston" muxbiri**

## Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

### UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISH

### avvalo, ta'lim sifatini oshirishdan boshlanadi

#### Hilola UMAROVA, maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

#### Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda ta'lim tizimida ham keng ko'lami islohotlar jarayoni jadal sur'atda davom ettirilmoqda. Fuqarolar murojaati bilan ishlashda xalq va davlat o'rtasida ochiq muloqot maydoni yaratildi.

Yurtodoshlarimizning davlatimiz rahbariga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilish imkoniyati yo'lga qo'yilishi natijasida yillar davomida yig'ilib qolgan muammolarning aksariyati bartaraf etildi. Xususan, masalalarning turli davlat dasturlariga kiritilishi orqali mazkur muammolarga tizimli yechim topilmoqda.

Islohotlar samaradorligiga erishish uchun soat mexanizmdik aniq ishlovchi ijro tizimi yaratildi hamda bu jarayon ayni paytda o'z samarasini bermoqda.

Shu ma'noda, jamiyat hayotining barcha sohalarda islohotlarning samarali amalga oshirilishi, birinchi navbatda, davlat organlari va tashkilotlarining barcha bog'ida ijro intizomini zarur darajada tashkil etishga bog'liq.

### Ijro intizomi — islohotlar asosi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida ijro intizomini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidentimizning farmon, qaror va farmoyishlari hamda boshqa topshiriqlari ijrosini belgilangan muddatda, sifatlari bajarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni davlat idoralari va tashkilotlarining ijro tizimida qat'iy intizom o'rnatishga huquqiy zamin yaratdi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralarga yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori davlat organlari va tashkilotlarining ijro intizomiga mas'ul bo'linmalarining ijro intizomini mustahkamlashdagi roli hamda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish borasida mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu asosda normativ-huquqiy hujjatlarini puxta ishlab chiqish va qabul qilishning ta'sirchan amaliyotini shakllantirish, ularni aniq ijrochilar, keng jamoatchilik hamda aholiga tezkor yetkazish yuzasidan yagona tizim joriy etilgan islohotlar samarasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligida ham mazkur farmon va qaror ijrosini ta'minlash,

shuningdek, ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha qator ishlar bajarilmoqda. 2023-2024-yillar davomida "Ijro.gov.uz" tizimi orqali vazirligimizga O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidentimizning farmon, qaror va farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasi hujjatlaridan iborat 1073 ta me'yoriy-huquqiy hujjat kelib tushgan. Ularda 5090 ta topshiriq va vazifa belgilangan.

Xususan, 2023-yilda 580 ta qonunchilik hujjatida belgilangan 3068 ta, 2024-yilda 493 ta qonunchilik hujjatida belgilangan 2022 ta topshiriq kelib tushgan. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslardan tushayotgan murojaatlar ham atroflicha o'rganib kelinmoqda. 2024-yilning o'tgan sakkiz oyi yakunlariga ko'ra, vazirlikka 24 ming 419 ta murojaat kelib tushgan. Ushbu murojaatlar to'liq o'rganib chiqilib, murojaatchilarning savol va takliflariga o'z vaqtida tegishli javob berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti veb-sayti orqali kelib tushgan murojaatlar soni 21 ming 198 tani tashkil etib, 2023-yilning shu davri bilan taqqoslaganda, murojaatlar 3454 taga ko'paygan.

Shuningdek, vazirlik rahbariyati tomonidan mamlakat bo'yab o'tkazilayotgan sayyor qabul davomida eng ko'p murojaat qilinayotgan yo'nalishlar, xususan, maktabga qabul, subsidiya ajratish, oilaviy bog'cha ochish, dars soati taqsimotiga davr so'ralar (masalalarning qariyb 90 foiz)ga shu joyning o'zida batafsil javob berilmoqda.

Ushbu mas'uliyatli va muhim vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlikda har hafta yakuni bo'yicha ijro muddati yaqinlashayotgan hujjatlar tahlil qilinib, zarur hollarda tegishli mutaxassislarni jalb qilish orqali topshiriq va vazifalarni belgilangan muddatdan avval bajarish choralari ko'rilmog'uda.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishib bo'yicha kiritilgan hujjatlarining aylanish davri sezilarli darajada qisqardi. Shuningdek, bir yillik aniq tizimlashtirilgan ish tartibi hisobiga vazirligimiz ish uslubini ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha vazirlik, idora va tashkilotlar ichida namunali deb topildi. Vazirlikimizda qisqa muddatli malaka oshirish ishlari tashkil etilgani ham tizim natijadorligiga yaqqol misoldir.

### Islohotlar raqamlarda

Maktabgacha va maktab ta'limi sohasini rivojlantirish, sifatlari ta'lim tizimini yaratish borasidagi islohotlar salmog'i organ bugun Prezident farmoni va qarorlari, hukumat hujjatlarida ushbu yo'nalishdagi vazifalar ko'payganidan ham ko'rinib turibdi.

Mazkur vazifalar ijrosining tizimli tashkil etilishi natijasida ayni vaqtda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ta'lim islohotlari o'z samarasini bermoqda. Xususan, o'tgan vaqt davomida bolalarni maktabgacha ta'limga qamrov darajasini oshirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi. Birgina joriy yilning o'zida 2678 ta yangi maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yilib, maktabgacha ta'limga qamrov darajasi 74,6 foizga, shundan 6 yoshlilar qamrovi 93 foizga yetkazildi (2017-yilda 27 foizni tashkil etgan).

Shuningdek, maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan



O'ZA

# SAYLOVOLDI TASHVIQOTI 22-SENTABRDAN BOSHLANADI



Inson qadri uchun

# CHINAKAM TARAQQIYOT YO'LI — KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KOMPLEKS KURASHISHDA



Ismoil SAIFNAZAROV, falsafa fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda kambag'allik ko'p yillar davomida yopiq mavzu bo'lib keldi. Bu ibora o'rninga "kam ta'minlanganlik" degan tushunchadan foydalandik. Ammo kambag'allik darajasi kamayib qolmadi. Tan olaylik, keyingi sakkiz yildagi ochiq siyosati tufayli haqiqat yuzaga chiqdi. Xalq bilan muloqotning samarali mexanizmi yo'lga qo'yilgach, odamlarning asl hayot darajasi, og'riqli nuqtalari oshkor bo'la boshladi. Inson qadri ulug'lash borasida boshlangan islohotlarning pirovard maqsadi kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga qaratildi.

Shu bois, xalqimiz turmushini yaxshilash yo'lida juda katta vazifalarni amalga oshirishga kirishildi. Xususan, davlatimiz rahbarining 2021-yil 11-avgustdagi "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2021-yil 3-dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandlegini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bugungi kun talabidan kelib chiqib qabul qilingan muhim huquqiy hujjat bo'ldi.

Keyingi yillarda bu borada davlat siyosatini markazdan mahalla darajasigacha yuritadigan vertikal tizim joriy qilingani quvonarli yangilik. Yoshlar masalalari bo'yicha har bir tumanda alohida hokim o'rinbosari, xotin-qizlar masalalariga har bir mahallada alohida rais o'rinbosari mas'ul etib belgilanishi ham e'tirofga arziydigan voqea. Bu esa, o'z navbatida, mazkur yo'nalish doirasida mahalla va oilalardagi muammolarni aniqlash, ularning yechimi bo'yicha takliflar berish va kerakli chora-tadbirlar ko'rinishini taqozo etadi.

O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurash haqida gapirganda, hududlarning shahar yoki qishloqlarda yashaydigan turli yoshdagi odamlar, erkaklar va ayollar uchun kambag'allikning sabablari juda farq qilishini hisobga olish kerak. Shu nuqtayi nazaridan, qashshoqlikka qarshi kurash juda murakkab va ko'p qirrali vazifadir. Muhtoj odamlarga to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yoki tabiiy yordam ko'rsatish orqali qashshoqlik muammosini hal qilishda jiddiy ijobiy natijaga erishish mumkin emasligi ayon bo'ladi.

Albatta, aholining kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash zarur, ammo turli sabablarini hisobga olgan holda kambag'allikka qarshi kurashda har qanday muhim yutuqlarga odamlar moddiy muammolarini mustaqil hal eta oladigan va o'zini zarur daromad bilan ta'minlaydigan sharoit yaratilganidagina erishish mumkin.

Kambag'allik — bu hayot uchun muhim bo'lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarni qondira olmaydigan, ishga layoqatli bo'lib, o'zi xohlagan ishlarni davom ettirishi mumkin bo'lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruh iqtisodiy holatining o'ziga xos xususiyatidir. O'rganishlar natijasiga ko'ra, hududlarda, ayniqsa, qishloq joylarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emas. Dunyoning boshqa mamlakatlaridagi singari bida ham kambag'al qatlam mavjud. Ular taxminan 12-15 foizni tashkil etishi ham rost. Bu 4-5 million odam, degani.

Ushbu holat nafaqat aholi, balki davlatning ham katta dardi bo'lib, xalqning sog'lig'i, mehnatga layoqati va ilmiy salohiyatiga putur

Prezidentimiz raisligida shu yil 11-sentabr kuni kambag'allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu boradagi ishlar sarhisob qilinib, kelgusida amalga oshiriladigan zaruriy chora-tadbirlar belgilab olingani bejiz emas.



yetkazadi. Shuningdek, uning oqibati davlat byudjetining pasayishi va siyosiy jarayonlarning keskinlashuviga sabab bo'ladi. Chunki kambag'al toifa jadal iqtisodiy o'sishdan foyda ko'ra olmaydi. Jamiyatning turli sohalarida ishtirok etish imkoniyati ham cheklangan. Davlat esa bepul o'rta ta'limni ta'minlash, tibbiy xizmatlarning asosiy paketini kafolatlash, ijtimoiy zaif deb tasniflangan guruhlarga ixtisoslashgan yordam va kam ta'minlangan oilalarga imtiyozlar berishga majbur. Eng yomoni, kambag'allik holatiga tushib qolishdan ko'ra, undan chiqib ketish ko'p karra qiyin.

strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o'sish hisobiga erishiladi. Mamlakatimizda aholining muayyan qatlami o'rnatida kambag'allik mavjudligi birinchi marta e'lon qilingan kundan boshlab, uni qisqartirish bo'yicha keng qamrovli ishlar bajarilmoqda. Barcha tuman va shaharlarda ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim — "Temir daftar", "Yoshlar daftar" va "Ayollar daftar" joriy etilgani ham samarali chora bo'ldi. Chunki ijtimoiy daftarlar yuritilishi natijasida unga

qaytganlarning ijtimoiy moslashuvi, yoshlar va ayollarni psixologik qo'llab-quvvatlash, chet tillar va kasb-hunarga o'qitish bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlar imkoniyatidan samarali foydalanish va hamkorlikni kengaytirish lozimligi belgilab olindi. To'g'ri, amaliy ishlar natijasida kambag'allikni qisqartirishga erishildi. Ammo bu choralar bilan muammo to'raligicha o'z yechimini topmadi. Vaziyat ish sifatini oshirishni taqozo etmoqda.

Prezidentimiz raisligida shu yil 11-sentabr kuni kambag'allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu boradagi ishlar sarhisob qilinib, kelgusida amalga oshiriladigan zaruriy chora-tadbirlar belgilab olingani bejiz emas.

Yig'ilishda qayd etilganidek, kambag'allikni qisqartirish mamlakatimizda 2020-yilda boshlangan edi. O'shanda 7,5 million yoki 23 foiz aholining daromadi kambag'allik chegarasiga yetmasdi. O'tgan yillarda 3,5 million odamni daromadli qilish orqali 2023-yil yakuni bilan kambag'allik darajasi 11 foizga tushdi. Mahallada kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlik loyihalariga 35 trillion so'm kam foizli kredit, 7 trillion so'm subsidiya berilgani, mahallalarni obod qilish, bog'cha, maktab, tibbiyot, yo'l, suv va elektr infratuzilmasi uchun 120 trillion so'm ajratilgani bu borada mamlakatimizda izchil islohotlar davom etayotganidan darak beradi.

Shuningdek, yig'ilishda bu boradagi ishlar hamma viloyat va tumanlarda ham bir xil darajada ketmayotgani,

kambag'al oila bo'yicha individual dastur tuzadi. Iqtisodiy kompleks esa oilalarni kambag'allikdan olib chiqish bilan shug'ullanadi. Bunda eng katta mas'uliyat tuman hokimlari va sektor rahbarlari zimmasida bo'ladi.

Yig'ilishda 2024-2025-yillarda odamlar o'zini o'zi band qilishi, kichik va o'rta tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun mikroreditlar ajratishga 10 trillion so'm berilishi, shuningdek, kambag'al oilalarga 30 million so'mgacha uskuna, ko'chma do'kon, motoroller, skuter kabi vositalar 5 yilda bo'lib to'lash sharti bilan taqdim etilishi hamda kambag'al oila farzandlariga kompyuter sotib olish uchun 5 yilga 2 yillik imtiyozli davr bilan foizsiz kreditlar ajratilishi kambag'allik darajasi kamayishi, aholining ijtimoiy himoyasi mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Savdo-sanoat palatasi huzurida tadbirkorlarga ishchi topib, tayyorlab beradigan markaz tashkil qilinishi, o'z navbatida, tadbirkorlarga ham, ishsiz aholiga ham katta qulaylik yaratadi. Umuman, bu maqsad juda keng ko'lamli, unga barcha hissa qo'shishi kerak. Asosiysi, kambag'al oilalar uchun ajratilayotgan mablag'ning manzilligini va samaradorligini oshirish zarur.

Prezidentimizning 2024-yil 11-sentabrda "Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonunchilik rivoj etilishi va uning ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish borasidagi qonunchilik ijrosini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatli.

**IQTISODIY TAHLILLARGA KO'RA, KAMBAG'ALLIKNI OYLIK YOKI NAFAQA MIQDORINI KO'PAYTIRISH, KREDIT BERISH BILAN QISQARTIRIB BO'LMAYDI. USHBU STRATEGIK MAQSADLARGA HAMMA UCHUN TENG IMKONIYAT YARATADIGAN YUQORI IQTISODIY O'SISH HISOBIGA ERISHILADI.**

kiritilgan odamlar bilan tizimli, manzilli ishlash yo'lga qo'yildi. Sektor rahbarlari va mutasaddi idoralar vakillari har bir mahalladagi holatni o'rgandi. Yoshlar va ayollar bilan birma-bir muloqot qilib, ehtiyoj, qiziqishlarini aniqladi hamda shu asosda manzilli choralar ko'rildi.

Xususan, ishsiz yoshlar va xotin-qizlarda rag'bat uyg'otib, kasbiy ko'nikmalar shakllantirildi, psixologik, huquqiy, tibbiy va moliyaviy ko'mak berildi. O'zini o'zi band qilganlarga soliq imtiyozlari berilishi hamda ko'pgina cheklolvar bekor qilinishi tufayli minglab yurtdoshlarimiz mehnat faoliyatini qonuniy tarzda yo'lga qo'ydi. Umuman, pandemiyasi sharoitida ishini yo'qotgan aholini qo'llab-quvvatlash uchun davlat va hukumat barcha chora-tadbirlarni ko'rtdi.

Kambag'allikni qisqartirish va aholining daromad manbalarini ko'paytirish maqsadida ijtimoiy daftarlar bilan ishlash, jazoni o'tab



kambag'allik darajasini pasaytirishga barcha hudud jiddiy e'tibor qaratishi lozimligi ta'kidlandi. Qayd etilganidek, 16 ta tumanda aholiga bo'lib berilgan yerda 2-3-martadan hosil olingani evaziga kambag'allik 2 karra kamaygan. Lekin 14 ta tumanda bu borada o'zgarish sezilmagan.

Kambag'allikni faqat pul tarqatish, nafaqa to'lash bilan hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun kambag'al oila a'zolarini o'qitish, kasbga o'rgatish va ish bilan ta'minlash muhim. Ijtimoiy himoya milliy agentligi hokimliklari bilan birga bu yil har bir mahallani to'liq xatovdan o'tkazib, "kambag'al oilalar portreti"ni ishlash chiqib,

Kredit ajratish yoki birgina iqtisodiy o'sish asosida kambag'allikka qarshi kurashish to'g'ri emas. Buning uchun davlat siyosati darajasidagi jiddiy sa'y-harakatlar talab etiladi. Birinchi navbatda, iqtisodiy o'sishning imkon qadar inklyuzivligini ta'minlash, iqtisodiyotdagi yutuqlar xalq orasida teng taqsimlansa va bundan aholining zaif qatlamlari ham bahramand bo'lsagina, kambag'allik qisqaradi. Bu esa muayyan chora-tadbirlar ko'rinishi, avvalo, yangi ish o'rinarini ochish, ta'lim sifatini oshirish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash, ijtimoiy dasturlar qabul qilish, amalga oshirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasiga najotkor kuch sifatida e'tibor qaratilayotgani ham kambag'allikni kamaytirishning eng to'g'ri yo'llaridan biridir. Zero, fikran va qalban poklangan kishigina tafakkur qilishga qodir. Tafakkur mutlaq haqiqat — inson o'zidek bandaga qul bo'lish uchun emas, hur yashash uchun yaratilganini anglashga imkon beradi. Fikran va ruhan uyg'ok bo'lish insonni har qanday "izm"ning kishanlarini parchalab tashlashga undaydi.

Bir esga olaylik. Kommunistik zulmga asoslangan davlat har qanday iste'dodni juvonmarg qiladigan usullarni o'ylab topdi. Eng iste'dodli insonlarni mahv etdi. Tuzumning maqsadi har qanday ziyoli, idrokli, ishbilmar odamni yo'qotib, chin ma'nodagi yo'qsillar jamiyatini barpo etish edi. Afsuski, orzusi ushaldi. Yurtimiz har jihatdan xarob, odamlar ham moddiy, ham ruhiy abgor ahvolda tushib qoldi.

Bosqinchilar 150 yildan beri otaverib, chopaverib, odamlarimizni soyasidan ham qo'rqadigan qilib qo'ygandi. Boz ustiga, biz bolalarimizni bir qarichligidan mutellikka, fikrmaslikka, o'z gapini aytmaslikka majbur qildik. Alisher Navoiy to'rt yasharligidayoq otasining do'stlari bo'lmish shoirlar, olimu fozillarning shubhatida ishtirok etar, ularning ilmu urfon, adabiyot va san'a't haqidagi fikrlarini quymaqluq bo'lib tinglardi, derdik, biroq bolalarimizni kattalar o'tirgan yerga yaqin yo'lmasdik. "Kattalarning gapiga aralashma, odobsizlik bo'ladi", deb ko'yirdik. Hamma narsani taqiqlayverib, cheklayverib, bolani mushtdayilgidanoq ruhan mayib, jur'atsiz qildik.

Bunday tarbiya ko'rgan bola hech qachon o'z fikriga ega bo'lmaydi, quvonchi yoki noroziligini botinib birovga aytolmaydi, yo'ni raddiya bildirishdan cho'chiydi. Natijada da'im bironing amrini kutib turadigan, bironing aqli bilan ish qiladiganlar toifasiga aylanadi.

Chindan ham fikran, ruhan o'zini daxlsiz, ozod his etmagan odam hech qachon jisman hur bo'lmaydi. Bilimsizlikka yuz tutadi. Bilimsizlik esa kambag'allikka olib boradi. Afsuski, biz tarbiyamiz bilan sustkash insonlarni voyaga yetkazayotganimizni xayolimizga ham keltirmagan ekanmiz. O'z fikrini aytishga jur'at etolmay o'sgan bola voyaga yetgach, bironing qo'llab-quvvatlashiga, to'g'rirog'i, boshini silashga ehtiyoj sezadi. Oqibatda shunday mute avlod voyaga yetadi. Xullas, dunyo taraqqiyotidan ancha orqada qoldik.

Bugun tezroq dunyoga yuzlanadigan, jahon madaniyati, dunyo taraqqiyotidan ulgi oladigan paytimiz keldi. Odamlarning yuzida nur, qalbida ertangi kunga ishonch paydo bo'ldi. Endigi vazifa — yosh avlodni dunyo madaniyatini ma'rifatan o'goh qilib voyaga yetkazish. Menimcha, birinchi navbatda, o'zligimizni tanimog'imiz darkor. Aks holda, o'tmishni unutmagan, tarixini bilmaydigan, ayni vaqtda bugungi dunyo madaniyatidan behara odamlar tarbiyalanaveradi. Bunday kimsalar qorindan boshqa narsa haqida o'ylamaydi.

Jamiyatda hur fikrli odamlar ko'paysa, odamlar bir-biridan hadiksirab turishdan qutulsa, chinakam taraqqiyotga erishadi. Ishni maktablardan boshlash, kimligini anglab yetgan chinakam ma'rifatli yoshlarni tarbiyalash lozim. Dunyoviy ilmlar va tarixdan xabardor, bir necha tilni puxta biladigan avlod voyaga yetishi zarur. Shundaygina kambag'allikka qarshi kurashda tom ma'noda muvaffaqiyatga erishiladi.

So'nggi bir necha yilda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining deyarli barcha jabhasini qamrab olgan keng ko'lamli islohotlar natijasida O'zbekistondagi kambag'allik darajasini pasaytirish borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Xususan, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda korruptsiyaga barham berilgani, aholini ichimlik suv, tabiiy gaz, elektr energiyasi bilan ta'minlash bo'yicha qat'iy erik infratuzilma loyihalarini amalga oshirilayotgani, aholining barcha qatlami uchun tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaxshilanishi, shuningdek, gender tenglikni ta'minlash borasidagi sezilarli ijobiy natijalar buning yaqqol tasdiqi'idir.





# ELEKTR ENERGIYASI TEJAMKORLIGI

## Sarf- xarajatni to'g'ri rejalashtirgan oila yutqazmaydi



**Abdushukur ABDULLAYEV,**  
texnika fanlari doktori

So'zinni bolalik paytimda — maktabning boshlang'ich sinflarida o'qib yurganimda yuz bergan voqeadan boshlasak. Bu hodisa ayni qovun pishig'i paytida sodir bo'lgan edi. Qisqasi, oila davrasida qovunxo'rlik qilib o'tirgan edik. Shunda otam menga "Qovunni teskari ushlayapsan", deb dakki berdi. Men esa hayron bo'ldim: axir qovunning u tomonidan ushladimmi yoki bu tomonidanimi, farqi yo'q-ku. Lekin otamning aytganini, albatta, bajardim. Bu o'g'itning asl ma'nosini oradan ko'p yillar o'tgandan keyin — bir kuni o'g'lim qovun yeyayotganda boshqa tomonidan ushlagani uchun yesa bo'ladigan qismiyam po'choqqa chiqayotganini ko'rganimda tushunganman.

Maqsad qovunni uvul qilmay, chala yemay iste'mol qilish ekan. Ba'zilar bu voqeani aytib berganida miyig'ida kulib qo'yadi. Shungayam qoida kerakmi, shu kichkina bo'lak odamni to'ydirib qo'yarmidi, degandek. Aslida, buning tagida isrofgarlikka yo'l qo'yimaslik, to'g'ri iste'mol, tartibli ovqatlanishga odatlanish maqsadi yotadi. Otamning buvazmdan meros bir iborasi bor edi: "Non ham non, non rezgisi (uvog'i) ham non".

### "Teskari ushlangan qovun"

Shu yil may oyidan elektr toki iste'moli uchun differensiallashgan to'lov tizimi joriy etildi. Elektr to'lovi tizimini zamonaviy va iqtisodiy jihatdan isloh qilish borasida ko'p yillardan buyon katta ishlar qilingan. Bu tizimni tavsiflash, ijobiy yoki salbiy tomonlarini izohlashdan yiroqman. Aytmoqchi bo'lgan gapim e'tibor berilmagan masalalar sirasiga kiradi. U nafaqat o'zimga, balki minglab yurtdoshlarimizga birdek taalluqli.

Xonadonimizda 3 ta oila (13 kishi) istiqomat qiladi. Elektr bo'yicha ikkita shaxsiy hisobraqam ochilgan. Energiya iste'mol qiluvchi texnikalar ham ko'p: 2 ta istish va 4 ta yoritish tizimi, oshxona jihozlari, 5 ta havo sovutkich hamda 2 ta issiq suv ta'minoti, asosan, elektr tokida ishlaydi. Bundan tashqari, 2 ta elektromobil ham bor. Yangi to'lov tizimi joriy etilgunga qadar oylik elektr energiyasi iste'moli qiymati 700-750 ming so'm atrofida edi. Yangi to'lov tizimiga o'tilgandan so'ng iyun oyida 3 million so'mdan ortiq, iyul oyida esa salkam 5 million so'mlik elektr energiyasi ishlatdik. Keyingi to'lov talabnomasi kelib tushgach, do'ppini yonga qo'yib, xonadonimizdagi barcha elektr jihozi va tizimini tanqidiy tahlil qilib chiqdim.

Olingan natijalar meni hayratga soldi. Elektr iste'moli bo'yicha barcha jihoz rejasiz, "ishlayaptimi — bo'ldi" qabilida ishlatilgan, otamning ta'bir bo'yicha "qovun teskari ushlangani" ma'lum bo'ldi. Avvalo, elektr jihozlaridan iste'mol talablariga mutanosib ravishda foydalanilmagan. Uy-ro'zg'or elektr apparatlarini va qurilmalarining aksariyatini muayyan davriylikda, "yombi-o'chib" ishlaydi.

Buning izohi oddiy — belgilangan rejimga yetgandan keyin o'chadi. Muayyan vaqtdan keyin ko'rsatkich belgilangan darajadan pastga tushgach, yana ishlaydi. Bu texnika tilida "davriy ish ko'effitsiyenti" deb yuritiladi va u ish vaqtining to'liq sikl vaqtiga nisbat asosida hisoblanadi. Ish sikli ishlagan vaqt va dam olgan vaqt yig'indisidir. Masalan, qurilma ish siklida qancha muddat ishlagan bo'lsa, shuncha vaqt dam olsa, ish ko'effitsiyenti 0,5 bo'ladi. Ish davriyligining to'rtinchi qismi ishlagan, chorak qismi dam olishga ketsa, 0,75 bo'ladi. Agar qurilma to'xtatmasdan ishlayotgan bo'lsa, ish ko'effitsiyenti 1 ga teng.

Tahlillardan uyimizdagi havo sovutkichlar to'xtovsiz ishlayotganini ma'lum bo'ldi. Bunga sabab oddiy: ya'ni sovutkichlar pultidagi harorat ko'rsatkichi (ayni sovutishdagi yakuniy harorat) juda past qilib qo'yilgan (bizning uy misolida 16 daraja). Ko'pchilik tasavvurida "konditsioner pultidagi harorat qancha past bo'lsa, xonani shuncha yaxshi sovutadi" degan tushuncha bor. Bu mutlaqo xato. Pultida 16 gradus belgilangan sovutlayotgan xona harorati shu ko'rsatkichga yetmaguncha konditsioner to'xtovsiz ishlaydi bildiradi. Holbuki, tashqi havo harorati 40 daraja bo'lgan paytda xona ichi 16 daraja bo'lishi uchun konditsioner quvvati me'yoriy quvvatdan kamida 1,5-2 barobar yuqori bo'lishi lozim. Me'yoriy rejimga hisoblangan konditsioner esa katta yuklama rejimi belgilangan bo'lsa, uzluksiz ishlaydi. Odam o'zini yaxshi his etishi uchun havo harorati 23-25 daraja bo'lishi kerak. Sovutkich shunga moslangan bo'lsa, u holda to'xtab-to'xtab ishlaydi. Uyimizda har kuni 12 soat yoqib qo'yiladigan 5 ta sovutkich oyiga 3024 kilovatt elektr energiyasi sarflaydi. Optimal rejimga qo'yib ishlatilganda esa oylik energiya sarfi 1512 kilovattni tashkil etarkan. Sovutkichlarning hammasi barobar yoqib qo'yilmay, faqat zaruratta ishlatilsa, bu ko'rsatkich oyiga 850 kilovatt bo'ladi, xolos.

### Bir necha barobar tejash

Keyingi tahlil obyekti — issiq suv ta'minoti. Xonadonimizda 2 ta 100 litrli "Ariston" apparatidan foydalaniladi. Uning suv isitishi 95 darajaga sozlangan. Demak, bu jihozlar ham xuddi yuqorida qayd etilgan kabi katta bosim bilan ishlaydi. Sozlangan haroratni 70 darajaga tushirib qo'ydim. Natijada davriy ish ko'effitsiyenti ham 0,2 ga tushdi. Energiya sarfi 4 barobar kamayib, oylik elektr sarfi 1200 kilovatt dan 420 kilovattga pasaydi, ya'ni tejalgan energiya 780 kilovattni tashkil etdi.

Nabvatdagi tahlil yoritqichlarga qaratildi. Xonadonimizga tejamkor elektr chiroqlari o'rnatilgan. Yuzaki qaraganda, bu borada tejaydigan hech narsa yo'qdek. Lekin yangilishgan ekanman. Barcha xonalarning yoritilganlik darajasini hisoblab chiqdim. Xalqaro qabul qilingan standartlarga muvofiq yashash xonalarning yoritilganlik darajasi 300-350 lk (lk — "lyuks" yoritilganlik darajasini o'lchash taalluqi).



birli) etib belgilangan. Bundan quyiga tushib ketishi ko'zga bosim bersa, haddan ziyod oshib ketishi inson asab tizimiga salbiy ta'sir etib, bosh og'rig'i va boshqa noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Hisob-kitoblar xonadonimizdagi yong'lik darajasi 2 ta xonada me'yordan 2,5 barobar, 3 ta xonada 2 barobar, bitta xonada esa 3,5 barobar yuqori ekanini ko'rsatdi. Ortiqcha chiroqlarni tarmoqdan uzib qo'yish, hovlidagi yoritish chiroqlariga odam yaqinlashganda ishga tushib, keyin o'zi avtomatik ravishda o'chadigan rele-avtomat qo'yish natijasida yoritish tizimiga sarflanayotgan oylik elektr energiyasi hajmi 270 kilovatt dan 90 kilovattga tushirildi va aynan shu borada tejalgan energiya 180 kilovattni tashkil etdi.



Mamlakatimizda tabiiy energiya resurslaridan foydalanishga e'tibor misli ko'rilmagan darajada kuchaydi. Quyosh paneli o'rnatish bo'yicha qator davlat dasturlari, rejalar qabul qilindi. Yangi tipdagi geliostansiyalar ishga tushirilmog'chi. Tashkilotlarning aksariyatida quyosh paneli o'rnatilib, olinayotgan energiya miqdori 25-30 foizga yetkazildi. Lekin xonadonlarda ushbu masalaga e'tibor hali yetarli darajada deya olmaymiz. Quyosh paneli o'rnatilgan xonadonlar hali ko'p emas.



### Beninnat energiya manbai

Oddiy choy qaynatkichning energiya sarfini ko'rsak. Odatda eng ko'p foydalaniladigan tefalning ko'rsatkichi: suv hajmi 1,8-2 litr, quvvati 2,2 kilovattga teng. Choy qaynatish vaqti 5-6 daqiqa. Kuniga 3 oila 12-marta yoqib, ishlatadi. Oylik energiya sarfi 60 kilovattni tashkil etadi. Lekin biz odam sonidan qat'i nazar, choy qaynatkichga to'ldirib suv quyamiz. Qurilmaga keragicha suv solib qaynatilsa, ustiga qalin matodan qilingan yopinchiq yopib ishlatilsa, oylik energiya sarfi 25 kilovattga pasayar ekan.

Avtomat kir yuvish mashinasi uy bekalari uchun bebaho qurilma. Ichiga yuviladigan kiyimlar solinib, ishlatib qo'yiladi. Suv solish, isitish, kir yuvish kukuni eritmasini quyish, yuvish, chayish va suvni chiqarish ishlari jihozning boshqaruv tizimi tomonidan nazorat qilinib, bajariladi. Xonadonimizda yosh bola ko'pligi sababli kir yuvish mashinasi kuniga o'rta 3-4-marta ishlatiladi. Tekshiruv natijasida apparatdagi bir to'plam kiyimni yuvish to'liq sikl 90 daqiqa sozlangani ma'lum bo'ldi. Hozirgi avtomat kir yuvish kukuni uchun 1,5 soat yuvishning nima zarurati bor?! Axir 15 daqiqa yetarli-ku. Qolgan jarayonga yana 15 daqiqa ketsa ham to'liq sikl uchun jami 30 daqiqa kifoya. Ushbu optimallashtirish natijasida birgina avtomat kir yuvish mashinasidagi elektr sarfi oyiga 320 kilovatt dan 110 kilovattga, ya'ni qariyb 3 barobar kamaytirildi. Aynan shu turdagi elektr jihozlaridan iste'mol talabiga mutanosib foydalanish orqali 3506 kilovatt elektr energiyasini tejash imkoni yaratildi.

Uyimizdagi 2 ta elektromobilni quvvatlantirish masalasini hal etib bo'lmadi. Bu ikki avtomashina har 5-6 kunda quvvatlantirishga qo'yiladi. To'liq quvvat har biri uchun taxminan 80 kilovattni, bir oyda har ikkisi jami 800 kilovattni tashkil etarkan. Buni kamaytirishning iloji yo'qdek tuyuldi. Lekin yechimi topildi.

Oilamiz kattaligi, elektr jihozlari ko'pligi oylik elektr energiyasi sarfi oshib borishiga sabab bo'lgani tabiiy. Lekin nima uchun faqat ko'chadan keladigan energiyaga qarab qolishimiz kerak?! Axir turli shahar va davlatlarning iqlimi to'g'risida ma'lumotlarni jamlab beruvchi Climate Data portali xabariga ko'ra, yurtimizdagi quyoshli kunlar yiliga o'rta 247 kuni, quyoshli soatlar 3633,4 soatni tashkil etar ekan. Bu uyga 10 kilovattli quyosh paneli o'rnatilsa, o'rta xonadonimizda 80 foiz bo'lgan taqdirda ham yiliga 29 ming kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqaradi, degani. Qurilma qiymatini subsidiya puliga chaqsak, 29 million so'm bo'ladi. Uzog'i 3 yilda quyosh paneli xarajatini qoplab, sof daromadga kiradi. Yurtimizda shunday energiya bo'la turib, nega undan samarali foydalanmasligimiz kerak?!

Mamlakatimizda tabiiy energiya resurslaridan foydalanishga e'tibor misli ko'rilmagan darajada kuchaydi. Quyosh paneli o'rnatish bo'yicha qator davlat dasturlari, rejalar qabul qilindi. Yangi tipdagi geliostansiyalar ishga tushirilmog'chi. Tashkilotlarning aksariyatida quyosh paneli o'rnatilib, olinayotgan energiya miqdori 25-30 foizga yetkazildi. Lekin xonadonlarda ushbu masalaga e'tibor hali yetarli darajada deya olmaymiz. Quyosh paneli o'rnatilgan xonadonlar hali ko'p emas.

O'zim ham ushbu yo'nalishda keng targ'ibot yuritgan mutaxassis, texnika fanlari doktori bo'la turib, xonadonimga bu tizimlarni o'rnatish masalasiga yetarli e'tibor qaratmagan ekanman. Mazkur muammolar masalaga yanada keng qarash, chuqur ilmiy yondashishga undadi. Uyimizga quyosh paneli o'rnatishga ahd qildim. Batafsil hisob-kitoblar, shuningdek, xonadonimizda elektr iste'moli yuqori ekan, qo'shimcha xazirani inobatga olib, 15 kilovattli, kunduzi ishlaydigan texnologiyaga asoslangan quyosh panellari tizimini o'rnatishga buyurtma berdim. Tegishli kompaniya bilan 110 million so'mlik shartnoma tuzildi. Masalani tez hal etish uchun Xalq bankining yangi onlayn loyihasidan foydalanib, 2 soatda bir yillik davrga mo'ljallangan 100 million so'm kredit oldim. Shu kunning o'zida zarur summa to'lanib, ertasidan ishlar boshlandi. Uch kunda quyosh paneli ishga tushirildi. Shu muddatda loyiha shahar elektr tarmoqlari korxonasi orqali hisobdan o'tkazilib, davlatdan subsidiya olish dalolatnomasi tuzildi. Endi uyimizda ishlab chiqarilgan elektr energiyasidan foydalanish bilan birga ortiqchasini tarmoqqa sotish imkoniyatiga ham ega bo'ldik.

Kuzatuvlar o'rnatilgan quyosh panellari ishlab chiqargan energiya bir oyda 3620 kilovattni, tarmoqqa sotilgani 1320 kilovattni

tashkil etayotganini ko'rsatdi. Bu esa bir oyda qariyb 2300 kilovatt elektr toki uyimizdagi manbadan olinganidan, bundan tashqari, tarmoqqa 1,3 million so'mlik elektr energiyasi sotilganidan dalolat beradi. Demak, quyosh panellarini o'rnatish xarajati uzog'i 2,5 yilda to'liq qoplanishini tushunish qiyin emas.

Asosiy elektr iste'mol qiluvchi qurilmalar quyosh paneli tarmog'iga ulansa, oylik to'lovimiz nafaqat oldingi 700 ming so'mga tushishi, balki undan ham kamayishi mumkin ekan. 5 million so'mlik to'lovning 700 ming so'mgacha kamayishini tom ma'noda juda salmoqli natija deb bilaman.

### Ko'zga ko'rinmas, ammo katta ta'sirga ega

Xonadonlardagi asosiy energiya sovutish (yo'zda) va isitish (qishda) qurilmalariga sarflanadi. Bu tizimlarning asosiy vazifasi tashqi muhit bilan issiqlik almashuvini kamaytirishga qaratilgan. Bunda esa bino, devor, eshik va derazalarning konstruksiyasi muhim ahamiyatga ega. Ular qanchalik yuqori massivlikka, issiqlik o'tkazishda qarshilikka ega bo'lsa, shunchalik energiya sarfi kam bo'ladi.

Biroq ilgari yakka tartibdagi uylarning qurilish loyihalarida bu xususiyatlar inobatga olinmagan. Turar joydan foydalanish davrida uyni isitish yoki sovutishga qancha energiya, mablag' sarflanishi hisob-kitob qilinmagan. Loyiha hujjatlariga bunga taalluqli bandlar ham kiritilmagan. Axir bu ko'zga ko'rinmaydigan, lekin muhtazam oila byudjetini yemirib boradigan xarajat-ku.

Ba'zan xonalar shiftni o'ta baland — 4-4,5 metr qilib qurish holatini kuzatamiz. Bu isitish va sovutish mavsumida har kuni ko'chaga chiqib, pulni havoga sochish bilan barobar. Chunki uylarda faol hudud 1-2,5 metr oraliqda bo'ladi. Undan yuqorisi sovuq mavsumda issiqni, issiq mavsumda esa sovuqni o'ziga singdirib, xalqona aytganda "yutib yotadi". Buning og'iri esa isitish yoki sovutish uchun sarflanayotgan elektr energiyasi yoki yoqilg'i, aniqrog'i, oila byudjetiga tushadi. Oddiy hisob-kitoblar shiftning balandligi 3 metr bo'lgan xonada balandlik 25 foiz ortgan bo'lsa-da, yuqoriga ko'tarilayotgan isitish (sovutish) energiyasi 35-40 foiz ko'p bo'lishini ko'rsatdi. Amaliyotda 3 metrdan yuqori hududda havo passiv bo'lgani uchun xalqaro standartlarda bu hududlar mikroiklim hisobiga olinmaydi. Yangi qurilishlarda bu kabi omillarni inobatga olish shart.

Uylarning tomiga quyosh paneli o'rnatish orqali bu yuzalardan oila manfaati uchun foydalanish kerak. Aksariyat turar joylarning tomi bo'sh turibdi. Ushbu yuzalarga quyosh paneli o'rnatilib, uy-ro'zg'or, oila byudjeti uchun foydalanilsa, ortib qolgan elektr energiyasini tarmoqqa sotish orqali tushum olsa bo'ladi. Masalan, o'rta 100 kvadrat metr bo'lgan tom yuzasida 18-20 kilovatt energiya beruvchi panellar o'rnatish mumkin. Shu bilan uyimiz tomiga tushayotgan va bekor ketayotgan quyosh energiyasi oila foydasi uchun ishlagan yo'naltiriladi.

O'z uyim misolida e'tiborga olinmagan yoki jiddiy muammo sifatida qaralmagan qator masalalarga to'xtalib o'tdim. Bularga e'tibor qaratishim, jiddiy tahlil qilishimga elektr energiyasi uchun joriy etilgan yangi to'lov tizimi turki bo'ldi. Aynan shu tizim menga, oila a'zolarimga bir paytlar qadrsizlanib qolgan, endi alohida e'tiborga tushgan, yashash tarzimizni yuqori darajada tashkil etishimizga asos bo'lgan elektr energiyasidan o'rinni, samarali va eng muhimi, isrof qilmasdan foydalanishni o'rgatdi. Axir birgina uyimizda har oyda 4 million so'mdan ortiq sarf-xarajati kamaytirishga, aniqrog'i, bunga sabab bo'lgan isrofgarchilikni bartaraf etishga erishildi.

Tahlillarga ko'ra, 1 kilovatt elektr energiyasi olish uchun salkam 3-3,5 kub metr gaz yoqiladi. Mamlakatimizda 8 milliarddan ortiq turar joy bor. Shundan 1 milliardida har oyda 3000 emas, 300 kilovatt elektr energiyasi isrof bo'lishining oldi olinsa, bu bir yilda 3,5 milliard kilovatt yoki 10 milliard kub metr tabiiy gazni tejash hamda uni sanoatga yo'naltirish imkonini beradi.

Yangi to'lov tizimi barcha xonadon egalari, oila a'zolarini elektr energiyasidan o'rinni, samarali va oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirishga undaydi, o'ziga xos uslubda tarbiyalaydi.



# VATANNI YOVDAN HIMOYA QILGANDEK

## o'zbek tilini ham himoya qilishimiz, asrashimiz kerak



**Bekzod SHUKUROV,**  
Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti rahbari o'rinbosari

### Boshlanishi 1-betda

Tili inqirozga yuz tutgan millatning o'zi ham tumtaraqay bo'lib, asta-sekin millat sifatidagi xususiyatlarini yo'qotirdi. Agar muhofaza qilinmasa, e'tiborsiz qoldirilsa, o'z tilini unutish holati kuchayib boraversa, har qanday til va millat shak-shubhasiz inqirozga yuz tutadi. Tarixda bunga misol ko'p.

**Jadid harakatning yirik namoyandalardan biri Abdulla Avloniy "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadigan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur" — deb bejjiz kuyib-yonib ta'kidlagan.**

### Yangi O'zbekistonda o'zbek tilining yangi hayoti

O'zbek tili ham bir vaqtlar yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi tillar ro'yxatiga tushib qolgan edi. Ammo bugun u keng quloq yozib, tobora ko'proq odam gaplashadigan tilga aylanib boryapti. Ayrim hisob-kitoblarga ko'ra, ayni paytda butun dunyoda oltin milliondan ortiq odam o'zbek tilida mulqot qiladi.

Ayniqsa, Prezidentimizning siyosiy irodasi va sa'y-harakati bilan yangi O'zbekistonda o'zbek tilining yangi hayoti boshlandi, deb baralla aytish mumkin. Davlatimiz rahbari 2019-yil 21-oktabr kuni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'tiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda quyidagi "Biz xalqimizning taqdiri, ertangi kuni haqida o'ylar ekanimiz, eng avvalo, millatimizning asl fazilatlarini, go'zal urf-odatlarini, betakror san'atimiz va adabiyotimizni, ona tilimizni ko'z qorachig'iday saqlashimiz zarur", degan edi.

Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari hamda bir necha qarori o'zbek tilining mavqei tubdan oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, mamlakatimiz yetakchisi globallashtirish sharoitida milliy tilimiz sofligini saqlash, lug'at boyligini oshirish, turli sohalarida zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish va bir xil qo'llanishini ta'minlash masalalarini dolzarb vazifa qilib belgilagan.

### Atamalar komissiyasi faoliyati takomillashtirishda

Kuni kecha Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Atamalar komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. O'zbek tilini yanada rivojlantirish borasida boshlangan tarixiy ishlarining mantiqiy davomi bo'ldi.

Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni asosida ishlab chiqildi. Qaror bilan Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Atamalar komissiyasining yangilangan tarkibi, Atamalar komissiyasi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Atamalar komissiyasining, Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari huzuridagi Atamalar bo'yicha ishchi guruhlarining asosiy vazifalari belgilandi. Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Atamalar komissiyasining ishchi organi, Atamalar bo'yicha ishchi guruhlar Atamalar komissiyasining quyi tuzilmasi hisoblanishi mustahkam qo'yildi.

### Atamalar komissiyasi faoliyatini takomillashtirishga qanday ehtiyoj bor edi?

Shu vaqtga qadar faoliyat yuritib kelgan Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Atamalar komissiyasi Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

Konstitutsiyasi loyihasi matnini ko'rib chiqib, o'zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan uni yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarini berdi.

Ishchi organi va quyi tuzilmalari belgilab berilgan, yangi so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritishning aniq mexanizmi ishlab chiqilgan Atamalar komissiyasi faoliyatini, atamashunoslik borasidagi ishlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi deb ishonch bilan aytish mumkin.

### Atamalar komissiyasining asosiy vazifalari o'zi nima?

Avvalo, Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Atamalar komissiyasiga O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri raislik qilishini alohida ta'kidlash joiz. Uning tarkibiga esa atqoli davlat va jamoat arboblari, Oliy Majlis Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, akademiklar, tilshunos, adabiyotshunos va folklorshunos olimlar, Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlari rahbarlari, O'zbekiston Qahramonlari, taniqli yozuvchilar, shoirlar, adiblar, jurnalistlar hamda boshqa sohalarning atqoli vakillari kiritildi. Bu esa uning nufuzi naqadar yuqoriligidan dalolat.

Atamalar komissiyasining asosiy vazifasi ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritishdan iboratdir. Bundan tashqari, atamalarning qabul qilingan ma'nosiga muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llanishini, adabiy til me'yorlariga rioya etilishini ta'minlash, o'zbek tiliga kirib kelayotgan yangi atamalarni qonunchilik hujjatlariga tatbiq etish va amalda qo'llashning huquqiy muammolarini o'rganish Atamalar komissiyasining vazifalaridir. Shuningdek, Atamalar komissiyasi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari



qarori bilan tashkil etilgan.

O'tgan davrda Atamalar komissiyasi bir qancha ishlarni bajardi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi

huzuridagi Atamalar bo'yicha ishchi guruhlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlariga atamashunoslik masalalari bo'yicha ko'rsatmalar beradi.



**Buguna kelib, millatlarni bir-biridan farqlash uchun milliy tillardan boshqa belgilar tobora kamayib boryapti. Shu sababli ham davlat tili unga mas'ul bo'lgan idoralar, bir guruh olimlar va faollarnigina qiziqtiradigan masala emas. Davlat tili bu — shu yurtda yashaydigan har bir fuqaroga bevosita daxldor bo'lgan umummilliy masaladir.**

Atamalar komissiyasi qarori bilan rasmiy muomalaga kiritilgan yangi so'z va atamalarni qabul qilingan ma'nosiga muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llash O'zbekiston Respublikasi hududida majburiy hisoblanadi.

### O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti — Atamalar komissiyasining ishchi organi

Atamalar komissiyasi jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatadi. Demak, uning kun tartibiga kiritiladigan masalalarni sifati tayyorlash uchun, albatta, unga ishchi organ kerak. Qarorda Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining Atamalar komissiyasi ishchi organi sifatidagi asosiy vazifalari belgilab berildi.

Institut taklif qilingan yangi so'z va atamalarni ilmiy jihatdan o'rganadi, ekspertizadan o'tkazadi, ekspertizadan o'tkazilgan yangi so'z va atamalarni jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qiladi. Jamoatchilik tomonidan bildirilgan taklif, fikr va tavsiyalarni o'zining ilmiy kengashi kengaytirilgan yig'ilishida tegishli soha mutaxassislari ishtirokida ko'rib chiqildi hamda yangi so'z va atamalarni bo'yicha takliflarni Atamalar komissiyasiga kiritib beradi. Atamalar komissiyasi tomonidan tasdiqlangan yangi so'z va atamalarni jamoatchilikka e'lon qilish, tegishli lug'atlarga kiritish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi.

### Atamalar bo'yicha ishchi guruhlar qanday tuzilma? Vazifalari nimalardan iborat?

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-avgustdagi Rayosati majlisi bayoni bilan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalarida jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi atamalar bo'yicha ishchi guruhlar tashkil etilgan edi.

O'tgan bir yilda ushbu ishchi guruhlar

faoliyati tajriba-sinovdan o'tdi. Ular tomonidan bir qancha yangi so'z va atamalarni qo'llash, rasmiy iste'molga kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Sohaviy izohli, imlo va tarjima lug'atlarini ishlab chiqish bo'yicha ishlanyapti.

Endi Atamalar komissiyasining quyi tuzilmasi hisoblangan ushbu ishchi guruhlarining asosiy vazifalari Vazirlar Mahkamasining qarori darajasida belgilab qo'yildi.

Atamalar bo'yicha ishchi guruhlar jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan yutuqlari natijasida tegishli sohalarida yuzaga kelayotgan yangi so'z va atamalarni tadqiq etadi, o'zbekona muqobilarni topadi hamda ularni bir xilda qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqib, Atamalar komissiyasiga kiritib boradi. Bundan tashqari, atamalar bo'yicha ishchi guruhlar tegishli idoralar tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida so'z va atamalarni to'g'ri qo'llanishini ta'minlash, davlat tilida ish yuritish bilan bog'liq muammolarni o'rganish hamda hal etish choralarini ko'rishga mas'ul.

Ishchi guruhlar soha mutaxassislari, olimlar, tadqiqotchilarni jalb qilgan holda sohaviy izohli va imlo lug'atlarini tayyorlaydi hamda nashr etib boradi. Shuningdek, qilingan ishlar to'g'risida tegishli sohalarida atamashunoslikning rivojlanishi masalalarini tahlil qilgan holda har olti oyda va yil yakuni bo'yicha Atamalar komissiyasiga hisobot beradi.

### Respublika darajasidagi boshqa idoralar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar atamalar bo'yicha taklifini kimga aytadi?

Xo'sh, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari yangi so'z va atamalarni bo'yicha takliflarini Atamalar komissiyasiga kiritish orqali atamashunoslik bilan bog'liq muammolarni hal etib borar ekan, ushbu tarkibga kirmaydigan davlat organlari va tashkilotlar bu borada qanday yo'l tutadi, degan tabiiy savol tug'iladi.

Bu masala yechimini sifatida qarorda respublika ijro etuvchi hokimiyat organi yoki xo'jalik birlashmasi hisoblanmaydigan respublika darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarga o'z huzurida Atamalar bo'yicha ishchi guruhlar faoliyatini tashkil etish tavsiya qilindi.

Misol uchun, Oliy sud, Markaziy saylov komissiyasi kabi idoralar o'z tashabbuslari bilan atamalar bo'yicha ishchi guruhlarni tashkil etsa, o'yaymizki, bu atamalar bilan bog'liq tegishli masalalarni hal etib borishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, atamalar bo'yicha ishchi guruhlar tashkil qilmagan taqdirda ham sohada yuzaga kelayotgan yangi so'z va atamalarni bo'yicha takliflarini Atamalar komissiyasiga kiritib borishlari mumkin.

Nodavlat tashkilotlar, fuqarolar yangi so'z va atamalar bo'yicha takliflarini soha, yo'nalish bo'yicha o'zlariga eng yaqin vazirlik va idora huzuridagi atamalar bo'yicha ishchi guruhlarga,

Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Atamalar komissiyasiga, Davlat tilini rivojlantirish departamenti yoki Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutiga berishiga huquqiy jihatdan hech qanday cheklov yo'q. Ushbu takliflar, albatta, belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

### Atamalar komissiyasining ekspertlar guruhi

Ekspertlar guruhi Atamalar komissiyasining ishchi organi tomonidan taqdim etilgan yangi so'z va atamalarni ko'rib chiqadi hamda o'zining xulosasi va tavsiyalarini beradi.

Qaror bilan ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritish sxemasi ham tasdiqlandi. Unga ko'ra, yangi so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritish o'n bir bosqichda amalga oshiriladi.

Avvalo, Atamalar bo'yicha ishchi guruhlar jamiyat taraqqiyoti va ilm-fan yutuqlari natijasida yuzaga kelayotgan hamda "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga kirmagan yangi so'z va atamalar yuzasidan takliflar ishlab chiqadi hamda Atamalar komissiyasiga kiritadi.

Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti ushbu takliflarni Atamalar komissiyasining ishchi organi bo'lgan Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutiga yuboradi, sifatsiz ishlab chiqilgan takliflarni esa Atamalar bo'yicha ishchi guruhlariga qaytaradi.

Atamalar komissiyasining ishchi organi yangi so'z va atamalar bo'yicha takliflarni ekspertizadan o'tkazadi, yangi so'z va atamalar bo'yicha takliflar tegishli tushunchani ifodalay olmaydi degan xulosaga kelgan taqdirda unga muqobil variantni beradi hamda taklif etilayotgan yangi so'z va atamalarni jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qiladi.

Yangi so'z va atamalar bo'yicha takliflar jamoatchilik tomonidan o'n besh kun davomida muhokama qilinadi. Unda bildirilgan fikrlar, taklif va tavsiyalarni O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ko'rib chiqadi hamda yangi so'z va atamalarni ilmiy kengash xulosasi bilan Atamalar komissiyasiga kiritadi.

Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti Atamalar komissiyasining ishchi organi xulosasi bilan kiritilgan takliflarni Atamalar komissiyasi huzurida tashkil etilgan ekspertlar guruhi muhokamasidan o'tkazadi hamda ularni rasmiy iste'molga kiritish bo'yicha rozilik olish uchun Oliy Majlis palatalarining tegishli qo'mitalariga yuboradi.

Oliy Majlis palatalari tegishli qo'mitalarining roziligi olingandan keyin yangi so'z va atamalar ko'rib chiqish uchun Atamalar komissiyasi majlisi kun tartibiga kiritiladi.

Atamalar komissiyasi tomonidan tasdiqlangan yangi so'z va atamalar O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan jamoatchilikka e'lon qilinadi. Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti esa ushbu yangi so'z va atamalarning rasmiy doirada keng qo'llanishini targ'ib qilish bo'yicha choralar ko'radi.

### Davlat tili — umummilliy masala

Buguna kelib, millatlarni bir-biridan farqlash uchun milliy tillardan boshqa belgilar tobora kamayib boryapti. Shu sababli ham davlat tili unga mas'ul bo'lgan idoralar, bir guruh olimlar va faollarnigina qiziqtiradigan masala emas. Davlat tili bu — shu yurtda yashaydigan har bir fuqaroga bevosita daxldor bo'lgan umummilliy masaladir.

Davlatimiz rahbari bu borada shunday degan edi: "... Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim".

Darhaqiqat, vatan qanchalik muqaddas bo'lsa, millatning tili ham shunchalik ulug'. Shunday ekan, o'zbek tilini Vatanni yovdan himoya qilgandek himoya qilish, asrash, rivojlantirish har birimizning muqaddas burchimizdir.

# O'ZBEK-NEMIS FAKULTETI

## MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHGA XIZMAT QILADI

### Oliy ta'lim

Taraqqiyotga yuzlanib, dunyoga ochilayotgan O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xalqaro hamkorlik har qachongidan-da dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimiz oliyoghlari o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlarga alohida e'tibor qaratmoqda.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida o'zbek-nemis fakulteti tashkil etilishi ham bu yo'ldagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Fakultetning ochilish marosimida Germaniyaning O'zbekistondagi elchisi Manfred Xuterer, mamlakatimizning Germaniyadagi faxriy konsuli Angela Papenburg, O'zbekistondagi Gyote instituti vakillari, Maktabgacha va maktab ta'limi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari, shuningdek, ko'plab xalqaro tashkilot vakillari hamda talabalar ishtirok etdi.

Prezidentimizning 2019-yil yanvar oyida Germaniya Federativ Respublikasiga tashrifi hamda Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning 2019-yil may oyida O'zbekistonga tashrifi ikki tomonlama siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar-madaniy munosabatlarni yangi bosqichga chiqardi.



Joriy yilning 15-16-sentabr kunlari Prezidentimiz taklifiga binoan Germaniya Federal Kansleri Olaf Shols rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ldi. Samarali muzokaralar o'tkazildi. Xususan, Germaniyaning dual ta'lim tizimini O'zbekistonda keng joriy etishga qiziqish bildirildi. Yetakchi universitetlar o'rtasida ta'lim va ilmiy aloqalarni rivojlantirish uchun ikki mamlakat oliy o'quv yurtlari forumini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. O'zbekiston tomoni qo'shima dasturlarni amalga oshirish, Germaniya oliy ta'lim muassasalarini fakultetlari va filiallarini ochish uchun barcha sharoitlarni yaratishga tayyorligini bildirdi.

O'zbekistonda nemis madaniyati va tilini o'rganishga katta qiziqish mavjud. Nemis tili mamlakatimizda eng ko'p tarqalgan xorijiy tillardan biridir. Hozirgi paytda oliy ta'lim sohasida Germaniyaning 30 dan ortiq oliy o'quv yurti bilan sheriklik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, talabalar, mutaxassislar va pedagog kadrlar almashinuvi yo'lga qo'yilgan. Ikki tomonlama madaniy-gumanitar munosabatlarni rivojlantirishda Toshkent va Berlin, Samarqand va Bremen, Buxoro va Bonn shaharlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini ta'kidlash o'rinni.

Bugungi kunda O'zbekistonda 980 ta maktabda 270 mingga yaqin o'quvchi nemis tilini o'rganadi, bu yerda 3 mingdan ortiq o'qituvchi dars beradi. 24 ta maktabda nemis tili o'rgatiladi, shulardan 6 tasida til chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi.

Germaniyaning 30 dan ortiq universiteti bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonlik mingga yaqin talaba, magistrant va doktorant Germaniyaning turli universitetlari va tadqiqot markazlarida tahsil olmoqda.

Shuningdek, Gyote instituti, K.Adenauer, F.Ebert fondlari, Germaniya xalq universitetlari uyushmasining xalqaro hamkorlik instituti vakolatxonalarini, Xorijdagi maktablar markaziy boshqarmasining nemis tili bo'yicha maxsus maslahatchi-kordinatori idorasi O'zbekistonda faoliyat yuritadi.

Toshkent davlat pedagogika universitetida nemis tili va adabiyoti yo'nalishi bo'lib, talabalar nemis tili va adabiyotini katta qiziqish bilan o'rganmoqda. Mazkur universitet va Ming Cheng instituti o'rtasida 2024-yil 12-martdagi hamkorlik to'g'risidagi bitim doirasida O'zbekistonda innovatsion nemis-o'zbek fakultetini tashkil etish bo'yicha shartnoma imzolangan. Ushbu hamkorlik loyihasi Germaniyaning o'qitish ilg'or standartlariga muvofiq yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Tashabbus keng ko'lami, jumladan, o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini qamrab oladi va Germaniyaning taniqli universitetlari bilan yaqindan hamkorlik qilishni maqsad qilgan.

**Nigora MURODOVA,**  
jurnalist





yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

HARAKAT —  
MUVAFFAQIYATLAR KALITI

Iftixor

YANGI O'ZBEKISTON  
SHABBODASI

Prezidentimizning Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari g'oliblarini taqdirlash marosimlaridagi ma'ruzalaridan keyingi o'ylar

Muzaffarlik bizga bobomerosdir,  
G'urur baxsh edingiz qutlug' davronga.  
Vatanning sha'nini quyoshga tenglab,  
Zo'r dovrug' soldingiz jumla jahonga.  
Uyg'ongan jasorat ovozi bu —  
Yangi O'zbekiston shabbodasi bu!

Oltin bu medallar — qudrat timsoli,  
Dunyo madh ayladi, tilida boli,  
Siz maydon so'rdingiz sheryurak bilan,  
Alpomish misoli, Barchin misoli.  
Medallar-jasorat dur-shodasi bu —  
Yangi O'zbekiston shabbodasi bu!


Bayroqday egilmas millat bardoshi,  
Mijjalarga qalqdi sevinch ko'z yoshi,  
Siz g'olib bo'lishdan tinmadingiz hech,  
Tinmadi tabriklab Sizni Yurtboshi.  
Ezgu duolarning ziyodasi bu —  
Yangi O'zbekiston shabbodasi bu!

Ishonch va ruh, qudrat ustuvor joyda,  
Cheklangan imkon ham cheksiz jur'atdir.  
Temuriyozdalar tog'ni qulatgay,  
Uyg'ongan qudrat ham asli hikmatdir.  
Mangu da'vatlarning shahodati bu —  
Yangi O'zbekiston shabbodasi bu!

Elga shonu shavkat qaytishi shuldir,  
Boshida Humoyu dilda dulduldir,  
Eng yuksak e'zozlar sizga ataldi,  
Elning shoirlari shundan bulbuldir,  
Odil qalb himmatin ifodasi bu —  
Yangi O'zbekiston shabbodasi bu!

Siz yangi zamonning iftixorlari,  
Siz bilan yashnadi dilu chaman ham.  
Qahramon farzandlar bor ekan toki,  
Qahramon sanalgay millat, Vatan ham.  
Shermakon yurtimning saodati bu —  
Yangi O'zbekiston shabbodasi bu!

Minhojiddin MIRZO,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

G'ALABAGA ERISHISH  
OSON BO'LMAYDIPARIS 2024  
PARALYMPIC GAMES

MOZIYGA NAZAR

2006-yilning yoz pallasi. Hovida o'ynoqlab yurgan bolakay ko'rinmay qoldi. Odiljon ota nabirasini yo'qladi, "Yorqinbek", deya chaqirdi. Kuymalanib yurgan Muharramxon aya ham bir zumda g'oyib bo'lib qolgan nabirasini izlab ko'chaga shoshildi. Shu topda Yorqinbekni mashina urib ketgani, shifoxonaga olib ketilgani haqidagi noxush xabarini eshitib, hushini yo'qotdi...

Katta avtomobil yo'lini kesib o'tish chog'ida sodir bo'lgan avtohalokat murg'ak bolakayga jiddiy jarohat yetkazgandi. Shifokorlar o'ng oyoqning tizzadan pastini kesib tashlashga majbur bo'ldi...

O'sha kungi iztiroblarimni eslasam, yuragim qalqib ketadi, — deya xotirlaydi Shukriya Sharipova. — Dunyo ko'zimga qorong'i bo'lib ketgandi, o'zimni aybdordek his qilardim. Ko'z oldingizda chopqillab yurgan qorako'zingiz bir kunda nogiron bo'lib qolsa, juda alam qilar ekan. Avvalo, qaynanam, qaynatam, turmush o'rtog'im, barcha yaqinlarim jonimga ora kirdi. Tushkunlikka tushmaslikka undashdi, ko'nglimda yaxshi umid va maqsadlar uyg'otishdi, qo'llab-quvvatlashdi. Bugun bu alomli iztiroblarni unutdim. Ayniqsa, Prezidentimizning musobaqaga g'oliblari, otanalar, murabbiylar bilan samimiy muloqotidan so'ng farzandimning xalqaro maydonda erishgan yutuqlaridan quvonib, ko'nglim faxr-iftixorga to'ldi. Ona uchun bundan ortiq baxt yo'q!

Yorqinbek yaqinlari mehriini his qilib ulg'aydi. Birovdan kam bo'lmaslik, tushkunlikka tushmaslikka harakat qildi, intildi, izlandi. Tabiatan serg'ayrat, harakatchan bolakay boshlang'ich ta'limni uy sharoitida oldi. Tengqurlardan kam bo'lmay, fanlami yaxshi o'zlashtirdi. Fizika va

matematika fanlariga ixtisoslashtirilgan maktabda o'qidi, Farg'ona shahridagi imkoniyati cheklangan shaxslarga ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejidagi ta'lim-tarbiya oldi. Yoshlikdan sportga mehr qo'yib, mashg'ulotlarga kirishgan iqtidor egasi tez orada murabbiylar e'tiboriga tushdi. Nayza uloqtirish yo'nalishida sport to'garigining faol a'zosi aylandi. Viloyat, mamlakat miqyosida bo'lib o'tgan bahslarda muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Bu yo'lda ustozlar pand-nasihati va ko'rsatmalariga amal qildi. Shu tariqa katta sport maydonlari sari odimladi. Farg'ona Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida mashg'ulotlarni davom ettirdi.

O'tgan yili Fransiya poytaxtida bo'lib o'tgan parayengil atletika turlari bo'yicha jahon chempionatining nayza uloqtirish bahslarida g'oliblar safidan joy oldi. Xitoyning Xanchjou shahrida o'tgan Paraosiy o'yinlarida kumush medalni qo'lga kiritdi. Bu yutuqlar uni nufuzli bellashuv ishtirokchisiga aylantirdi.

Parijadagi bellashuvlar, hayajonli damlarni so'z bilan ifodalab berolmayman, — deydi chempion. — U yerga hamma g'alaba qozonish uchun boradi. Ammo biz boshqalardan ko'ra, aniqroq, dadilroq harakat qildik. Chunki bizni butun O'zbekiston qo'llab-quvvatlab turdi. Bundan kuch-quvvat oldik, g'alabaga ishonchimiz ortdi. Prezidentimiz har birimizni telefon orqali ruhlantirib, rag'bat bergani kuchimizga kuch qo'shdi. Bizga yaratilgan sharoit, g'amxo'rliklar haqida eshitgan boshqa mamlakat sportchilari havas qildi, tan berdi. Nufuzli musobaqada munosib ishtirok etish, vatan sha'nini himoya qilishning o'zi katta baxt, shon-sharaf! Albatta, bundan g'ururlandim, ustozlarim, yaqinlarim ishonchini oqlaganim, mehnat va izlanishlarim besamar ketmayotgani, boshqa tengqurlarim qatori yurt koriga yaraydigan farzand bo'lib kamolga yetganimdan faxrlandim. Chunki g'alabalarga erishish oson bo'lgani yo'q.

OLIMPIYA MASH'ALASI  
YONIB TURIBDI

Mard va matonati o'g'lon haqida maqola tayyorlash jarayonida Qo'shpepa tumanidagi "Shomirza" mahalla fuqarolar yig'inida, chempion yashayotgan xonadonda bo'lib, yaqinlari bilan suhbatlashdik. Parijda o'tgan nufuzli paralimpiya mash'alasi bu xonadonda hanuzga qadar yonib turibdi. Chempionni qutlash uchun kelayotganlar yoshlar, ota-onalar bir dam bo'lsa-da to'xtagan yo'q.

Uzoq yil xalq ta'limi sohasida ishlab, pensiyaga chiqqanm, — deydi matonati o'g'lonning bobosi Odiljon Qurbonov. — Muvaffaqiyatlar o'z-o'zidan kelmaydi, albatta. Yoshlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash borasidagi sharoit va imkoniyatlar bugun o'z mevasini berdi. Shunday "oltin yoshlar" safida nabiram borligi ko'nglimga g'urur va iftixor bag'ishlaydi. G'alabalar bu bilan cheklanib qolmaydi. O'zbekiston ulkan imkoniyatli yoshlar mamlakati sifatida dunyoga tanildi. Bu yerda hali ko'plab yuksak bilim va salohiyatga ega olimlar, mahoratli sportchi yoshlar kamol topishiga ishonaman.

Har qanday g'alaba ortida mashaqqatli mehnat, intilish va ishtiyok mujassam. Maqsad to'g'ri yo'lga qo'yilsa, natijalar qo'lga kiritilaveradi. Shunday ekan, yuksak marralar sari parvoz qilayotgan mahoratli sportchi yig'itning g'alabali odimlari bardavom bo'laveradi.

Rasuljon KAMOLOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Matonat timsoli

## TEMURNING METIN IRODASI

yoxud sinovlarni sabr va ishonch  
ila yengib o'tgan qahramon

Dardoqtepa mahallasida erta tongdan xursandchilik. Ko'chaga chiqqanlar: "Chempionimiz Prezident sovg'asini olib kelyapti ekan", deya g'ururlandi. Temurbek G'iyozov 2018-yilda Jakartadagi Paraosiy o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritdi. 2019-yilda "Yilning eng yaxshi paralimpiyachisi" bo'lib, bu yil ham Parijdan quruq qaytmadi.

Temur musobaqaga tushadigan kuni mahalladoshlar unga omad tilab, duolar qildi. Yuzy yorug' bo'lishini Yaratgandan so'radi. Natija yomon bo'lmadi, sportchimizga bronza medal nasib etdi. Uning yutuq'idan mahalladoshlar quvondi, havasmandlarning qalbiga bayram shukhi kirib bordi. Bu mahallaning ijtimoiy tarmoqdagi guruhlardagi fikrlar, tilaklarda ham yaqqol ko'zga tashlandi. Unda: "Temurbek, yoshlarga chinakam o'mak bo'lding. Mahalla yoshlari sendan yaxshigina motivatsiya oldi", "Temurning yutuq'ini ko'rib, yaponlarning "baxtsizligim baxtimdir", degan iborasi esimga tushdi. Bugun Temur erishgan

g'alaba, yutuq va martabaning boshlang'ich nuqtasi baxtsizlik edi. Shuncha mashaqqatli, iztirobli kunlar, tinimsiz mehnat va harakat ortidan hayotini chinakam baxtga aylantira oldi", kabi fikrlar aytiladi.

Darhaqiqat, Temur G'iyozov 11 yoshida avtohalokat sabab onasidan ajragan, nogironligi sabab 7-sinfdan so'ng maktabga chiqqan. Ungacha uyda ta'lim olgan edi. Sinfdoshlari bilan birga bilim olish baxtiga muvassar bo'lgan Temur faqat jismoniy tarbiya darslaridagina qiyналardi. Ba'zi maktabdoshlari uni kamsitsa-da, ortiq uyda ta'lim olishni istamasdi.

O'sha paytda hozirgi aqlim bo'lganida, "Sen chetga chiqib tur, biz bilan barobar bo'lolmaysan, urinmay qo'yaqol, baribir bizdek yugurolmaysan", degan gaplarni zaracha yurakka olmagan, kamsitishlar, ajratishlardan o'kinmagan bo'lardim, — deydi Temur. — Hatto dadam operatsiyalarimga pul so'rab borgan qarindoshlardan ayrimlari ham "Oyog'ini kestirib tashla, oson qutulasan, nima qilasan davolatib", degan ekan. Bugun ancha ulg'ayib anglab yetdimki, bizday insonlarni haqorat qilishga, kamsitishga, ajratib qo'yishga hech kimning haqqi yo'q. Quvonarlisi, menga davlat tabirida Prezident bilan ko'rinish baxti nasib etdi. Qo'ltiqta yoq sotib olishga pul yo'qligi sabab onam meni yelkasida opichlab yurgan kunlar bo'ldi. Kechagidek eslayman u kunlarni. Operatsiyaga kirib ketganimda, holsizlikdan jonlantirish xonasi eshigiga suyanganicha mudrab qolgan ham ko'z oldimda. Qani endi hozir osmon qadar yuksalayotganimni volidai muhtaramam ko'rsa-yu, o'sha jonsarak

qaddi, zabardast yelkalari men bilan birga yuksalib, qadoq qo'llari duoga ochilsa... Chekka qishloqda turtinib-surtinib ulg'aygan o'g'lining davlat rahbari bilan uchrashish darajasiga loyiq ko'rilganidan boshi ko'kka yetaydi. Andijon markazidan 3 xonali uyni sportdan topgan halol pullariga olganini bilsaydi. Yoxud dadam yana ikki yilgina hayot zavqini surganida ham quvonchimga sheriklikka ulgurarmidi? Nailoq, ularning ruhini bo'lsa-da, shod qilayotganimdan deymen o'zimga o'zim.

Ha, baxtli onlarimizda ko'z oldimizga, avvalo, ota-onamiz keladi. Quvonchimizni birinchi bo'lib ular bilan baham ko'rishni istaymiz. O'zga yurtida o'zbek bayrog'ini ko'targanlarda esa bu istak ming chandon kuchli bo'ladi. O'g'lining chet ellardan g'alaba bilan qaytishini ko'rish Temurning otanasiga nasib etmadi. Uning o'zi aytganidek, ular hayot bo'lganida, uchinchi o'rinni ham munosib taqdirlab, pul mukofotidan tashqari mashina, xonadon tuhfa etgan davlatimizdan



g'oyat minnatdor bo'lishlari aniq edi. Shukrki, chempionning boshini ona o'mida silaydigan opalari, ota o'mida quchadigan akasi bor.

Shuning uchun u bolalik chog'ida ham ruhan cho'kib qolmadi. Ochiqdan-ochiq "Bu bola davlat beradigan pensiya bilan yashaydi endi, bir umr bir joyda o'tiradi", degan gaplarni eshitganida ham sportdan ketmadi. Ayniqsa, keyingi yillarda paralimpiyachilarga qaratilayotgan alohida e'tibor uning sportga muhabbatini yanada oshirishga xizmat qilyapti.

Sportchilarga adolati yondashdigan, paralimpiyachilarni chetga chiqarib qo'yamaydiganlar g'amxo'rlikiga javoban O'zbekiston g'alabalariga hissa qo'shayotganimdan baxtiyorman, — deydi Temur. — Parijda bizga yaratilgan barcha sharoitlar uchun davlatimizga alohida rahmat. Yurtga qaytganimizdan so'ng ham bizni o'z-gacha e'zozlashdi. Bunday hurmat, e'tibor hech bir mamlakatda yo'q. Shu ma'noda, o'zim kabi imkoniyati cheklangan yoshlarga hech ikkilanmay, sport bilan shug'ullanishini aytgan bo'lardim.

Temur bu yutuqqa osongina erishgani yo'q. U yillar davomida turfa sinovlardan mardonavor o'ta oldi. Sabr, chidam va doim olg'a intilish orqali yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Munajat MO'MINOVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"  
gazetalari tahririyati" DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:  
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3265.  
41369 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060,  
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva  
Musahhib: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 22:15 Topshirildi — 22:55